
ZULFIYA NOMIDAGI DAVLAT MUKOFOTI UCHUN TANLOVNING TOSHLOQ TUMANI BOSQICHI O'TKAZILDI

Toshloq tumanidagi 2-umumta'lim maktabida Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti uchun ko'rik-tanlovning tuman bosqichi o'kazildi. Unda tumandagi 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan 100 nafar eng faol, zukko, iqtidorli qizlar ishtirok etdilar.

Tanlov yakunlariga ko'ra, Adabiyot yo'nalishida Guljahon Abdumutalova, San'at yo'nalishida Mushtariy Odilova, Dilobar Oripovalar hamda Sport yo'nalishi bo'yicha Shahrizoda Rahmonova g'oliblikni qo'lga kiritdilar.

Tanlovda komissiya a'zolari tomonidan har bir ishtirokchining chiqishi, nomzodning tayyorlagan ishlari odilona baholanib, munosib nomzodlar ro'yxati viloyat komissiyasiga tavsiya etildi.

2022-10-21 08:19:22